

Toshkent kimyo-texnologiya instituti “Elektron qabulxona” interaktiv xizmatining reglamanti

1. Xizmat ta’rifi

1.1. Xizmatning nomlanishi

Qisqa nomi: “Elektron qabulxona”.
Kengaytirilgan nomi: Toshkent kimyo-texnologiya institutining rasmiy veb-sayti orqali xizmat ko’rsatilayotgan “Elektron qabulxona” interaktiv xizmati.

1.2. Xizmat natijasi

Foydalanuvchi institut rahbariyat xodimlarining “Elektron qabuli” to’g’risidagi ma’lumotlar chiqariladi.

1.3. Xizmat ko’rsatuvchi organlar

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

1.4. Interaktiv xizmatdan foydalanuvchilar

Talabalar, ota-onalar, jismoniy va yuridik shaxslar.

1.5. Bajarilish muddati

“Elektron qabulxona” institut rahbariyati tomonidan tasdiqlangandan so’ng, interaktiv xizmat bazasiga joylashtiriladi va 3 kun muddatda murojat etilgan elektron pochtaga javob xati jonatiladi.

2. Xizmatdan foydalanuvchilarga ma’lumot taqdim etish

2.1. Ma’lumot tarkibi va hajmi

Mazkur xizmatdan foydalanish uchun murojaat qilgan har qanday fuqaroga quyidagi ma’lumotlar taqdim etiladi:

1. Institut rahbariyati xodimlarining elektron manzillari.

2.2. Batafsil ma’lumot olish

Institut Devonxona bo’limi orqali: Jonatilgan elektron manzilga javob xati jonatiladi.

2.3. So’rovnoma bo’yicha ma’lumot olish

Interaktiv xizmatdan Internet tarmog’i orqali kecha-yu kunduz ma’lumot olish mumkin.
Elektron pochta orqali: dushanba-juma kunlari soat 09:00 dan 17:00 gacha.

2.4. Xizmat ko’rsatish manzili hakida ma’lumot olish

Toshkent shahar Shayxontohur tumani A.Navoiy ko’chasi 32 uy

3. Ish vaqtlari va murojaat javoblarini kutish vaqtlari

3.1. Ish vaqtlari

Interaktiv xizmatdan Internet tarmog’i orqali kecha-yu kunduz foydalanish mumkin.

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Zarur bo'lgan xujjatlar

Interaktiv xizmatdan foydalanganda foydalanuvchi tomonidan qo'shimcha hujjat talab etilmaydi.

4.2. Xizmat to'lovi

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

4.3. Interaktiv xizmat ko'rsatish bosqichlari

Interaktiv xizmat institut Devonxona xodimlari tomonidan tashkillashtiriladi. Mas'ul xodimlar tomonidan fuqaro murojaati to'g'risidagi ma'lumotlar institut rahbariyatiga yetkaziladi. Ular tomonidan berilgan javob mas'ul xodim tasdig'i asosida devonxogana kiritilgandan so'ng, 1 ish kuni davomida interaktiv xizmat ma'lumotlar bazasiga joylashtiriladi. Interaktiv xizmatni tashkil etish ta'minoti ATM xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

4.4. Rad etish sabablari

Davlat xizmatini taqdim etishni rad etishda interaktiv xizmat ko'rsatish dasturi o'rnatilgan serverda profilaktik ishlar o'tkazilayotgan bo'lishi mumkin